



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 1-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

**www.innoworld.net
O'ZBEKISTON-2026**



Volume 3 Issue 2 | 2026 |

+99833 5668868 | @Anvarbek_PhD

Page | 2

O'smirlik davri psixologiyasi

Axmedova Ruxshona

TerDU psixologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlik davrida kechadigan psixologik o'zgarishlar, o'smir xususiyatlari, sinf jamoasida yoki shaxslararo munosabatlarda o'smirning holati haqida umumiy tushunchalar yoritilgan.

Annotation: This article discusses the psychological changes that occur during adolescence, the characteristics of adolescents, and provides a general overview of an adolescent's position within a class group or in interpersonal relationships.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические изменения, происходящие в подростковом возрасте, особенности подростков, а также даётся общее представление о положении подростка в классном коллективе и межличностных отношениях.

Kalit so'zlar: *o'smirlik, o'smirlik davri psixologiyasi, o'tish davri.*

O'smirlik — bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi.

O'smirlik davri fiziologik va ko'p jihatdan psixologik o'zgarishlar davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar agressiv yoki urushqoq bo'lib qoladilar. Ota-onalari va yaqinlari ularga kattalardek munosabatda bo'lishlarini xohlashadi. O'smirlar o'zlaridagi qobiliyat va iste'dodlarini hammaga ko'rsatishga harakat qiladilar. Agar ularga hech kim e'tibor qaratmasa, tezda agressiv holatga o'tib qoladilar. Shuning uchun ham o'smirlik davri "o'tish davri", "krizis davri", "qiyin davr" kabi nomlar bilan xarakterlanadi. Chunki bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni «psixik rivojlanishdagi inqiroz» deb nomlagan.

O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat - voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko'ngil ochish jarayonida, xulq-atvoning tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi. O'smir o'z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayayotganini anglay boshlaydi. Bulaning barchasi unda kattalik hissini rivojlantiradi. Unda g'ashga tegadigan rahbarlikdan, o'rinsiz homiylikdan, ortiqcha nazoratdan, zeriktiradigan g'amxo'rlikdan xoli bo'lish istagi vujudga keladi. Mazkur jarayon o'z navbatida kattalar bilan munosabat va muloqotda noxush kechinmalarni paydo qiladi. Sinf jamoasi va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishgina kattalar bilan o'smirlar orasidagi "anglashilmovchilik g'ovi"ni yo'qotadi. O'smirlar bilan

munosabatda ularning mustaqilligi, faolligi, tashabbuskorligi, o'zini boshqarishini hisobga olib, ortiqcha homiylik, g'amxo'rlik qilmaslik ijobiy samaralar beradi.

O'smirlikda ko'pincha o'zboshimchalik, tajanglik, o'jarlik kabi xususiyatlar paydo bo'ladi. Bu davrda o'smir bolalar o'zlari xohlagan ishni hech kimdan ruxsat so'ramasdan o'zboshimchalik bilan qiladilar. Ota-onalari yoki ustozlari bergan vazifalarni o'jarlik qilib, umuman bajarishni xohlamaydi. O'smirlar psixologiyasiga katta ta'sir ko'rsatadigan narsa bu tengdoshlari bilan munosabatga kirishishi, do'stlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo'ladi. O'smirlar o'qigan narsalarini va eshitgan gaplarini tez va oson xotiralariga saqlab qoladi.

O'smirlik davri xususiyatlarini talqin qilgan olimlarning ta'kidlashicha, o'g'il va qizlarning bu yoshda o'rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo'ladi. Ushbu o'zgarishlar ta'sirida bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatlarini o'sib borish munosabati bilan o'zlariga ko'proq ishona boshlaydilar, ular endi oilaviy muammolar muhokamasida ham ishtirok eta boshlaydilar.

O'smir o'quvchilar o'rganayotgan fan asoslari, avvalo ulaning mavhum tafakkurini o'stirishga qaratiladi. Uning aqliy faoliyati xususiyatlaridan biri mavhum tafakkuning rivojlanishidir. Buning natijasida ularning fikrlashi va dunyoqarashi o'sib boradi.

O'smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B.Elkonin va T.V.Dragunovning ta'kidlashicha, o'g'il va qizlarning bu yoshda o'rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo'ladi.

O'smirlarning o'rtoqlik va do'stlik tuyg'ulari o'zaro munosabatlarini o'rgangan I.V.Straxov, ulaning o'zaro munosabatlarini uchta shaklga: ulfatchilik, o'rtoqlik va do'stlikka bo'ladi. Har bir yuksak tuyg'uni psixologik jihatdan ta'riflab, ulaning rivojlanishini bayon qiladi, yuksak, insoniy tuyg'ularning shakllanish sur'ati, barqarorligi o'g'il bolalar bilan qizlarda birmuncha farqlanishini ta'kidlaydi.

V.A.Kruteskiy va N.S.Lukinning fikricha, haqiqiy o'rtoqlik va chinakam do'stlik mardonavor o'rtoqlik va talabchan do'stlikdir. Bunday o'rtoqlik va do'stlik amaliy yordamni va o'rtog'ining xatolarini to'g'ri, samimiy va ochiq tanqid qilishni taqozo etadi. O'smirning sinf jamoasi hayotida faol qatnashish uchun intilishi g'oyat katta ahamiyatga ega. Sinf jamoasi a'zolarining o'zaro yordam, birdamlik, hamdardlik, bo'ysunish odati, shaxsiy hamda ijtimoiy qiziqishlarini rivojlantiradi. O'smirlik davrida muloqotning intim shakli rivojlanadi. O'smir intim munosabatga kirishganda o'zini qulay va erkin his qiladi.

Xulosa. O'smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab asosiy ahamiyat kasb etadigan davr hisoblanadi. O'smir yoshdagi bolalarni to'g'ri tarbiyalash, kasb-hunarga yo'naltirish, deviant xulq-atvoriga ega bo'lgan o'smirlarni korreksiya (tuzatish) qilish, ularga to'g'ri yo'lni topishida ko'maklashish bu faqatgina ta'lim muassasasidagi xodimlarninggina emas, balki ota-onalarning ham vazifasidir. Chunki o'smirlarda yuzaga keladigan xulq-atvor o'zgarishlari faqat jamoa

muhitida emas, balki oilada ham shakllanadi. Shu sababli o'tkaziladigan psixoprafilaktika yoki psixokorreksiya jarayonlari oila muhitidan uzoqlashmagan holda olib borilishi lozim. Bundan tashqari pedagog o'qituvchi ta'lim jarayonida bolani qo'llab-quvvatlashi uni rag'batlantirib turishi lozim, shunda o'smirning o'qishga nisbatan ishtiyoqi so'nmaydi va kelajakka nisbatan bolada kuchli ishonch shakllanadi. Aks holda esa o'smir xulq-atvorida deviant yoki delikvent xulq-atvor yuzaga keladi. Bugungi kunda jamiyat yuksalishining birdan bir yo'li bu yoshlarni ayniqsa o'smirlarni to'g'ri tarbiyalay olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergash G'oziev "Ontogenez psixologiyasi" 2020
2. Zamira Nishanova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" 2018
3. Vasila Karimova "Ijtmoiy psixologiya" 2012

